

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI MAQSADLARIGA MAQBUL BO‘LUVCHI ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH MODELINI SHAKLLANTIRISH

Shoha‘zamiy Sh.Sh.

O‘zMU, i.f.d., prof.,

Saydirasulov L.A.

*TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti*

Hozirgacha yuqori ishonchlilik va barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini namoyon etib kelayotgan islomiy moliyalashtirish tizimi²¹⁹ ko‘pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan noislomiy davlatlarda samarali joriy qilinib, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish ommalashib bormoqda. Bunga quyidagilar argument bo‘ladi:²²⁰ jahonda sodir bo‘lgan moliyaviy inqirozlar sharoitida islomiy moliyalashtirish instrumentariysi asosida ishlagan moliya-bank institutlari mazkur inqirozlardan kam yo‘qotishlar bilan chiqqani; xalqaro-integrallashgan moliya-kredit tizimining yondosh (muqobil) islomiy moliya sektori yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o‘sib borgani.²²¹ Bu tendensiyalar sababli, islomiy moliyani ko‘pchilik noislomiy davlatlarda samarali joriy qilingan bo‘lib, mazkur mamlakatlarda islomiy moliyalashtirish borasidagi ilg‘or tajribasidan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida investitsiya, infratuzilmaviy, ijtimoiy va kichik biznes kabi turlardagi loyihalarni moliyalashtirishda samarali foydalanish zarurati vujudga kelgan. Binobarin, islomiy moliyani “O‘zbekiston-2030” strategiyasi²²² kontekstida samarali joriy qilish natijasida mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratilishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, davlat rahbarining 2023-yildagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida²²³ O‘zbekistonda islomiy moliyani joriy etish va tegishli huquqiy bazani yaratish zarurligi va bunga Islom taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari va yetuk iqtisodchi olimlarni jalb etilishi, ular tomonidan tegishli tadqiqotlar o‘tkazilishi ta’kidlangan edi.

Aytganlarning barchasi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi maqsadlari kontekstida jahondagi noislomiy davlatlarda loyihalarni islomiy moliyalashtirishni mavjud mazhablar (Shariat maktablari – Sunniylarga mansub Hanafiy (Imom A‘zam), Shofe‘iy, Molikiy, Hanbaliy maktablar hamda Shiyalarga mansub Ja‘fariy maktabi) qoidalariga tayanuvchi amaliyotining samaradorlik

²¹⁹ Zamonaviy islomiy moliyalashtirish tizimiga islomiy banking, islomiy sug‘urta, islomiy moliyaviy bozor (shu jumladan islomiy kapital bozori), islomiy fondlar, islomiy fintex (Fin Tech) sohasi kiradi.

²²⁰ Bunda islomiy moliyalashtirish eng yaxshi yo‘lga qo‘yilgan uchta davlat Saudiya Arabistoni, Eron, Malayziya ko‘rsatkichlar ko‘lami bo‘yicha global bozor hajmining 66 foiziga egalik qilmoqda.

²²¹ Shoha‘zamiy Sh.Sh., Saydirasulov L.A., Abdul Jalil Maxama. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida islomiy moliyani samarali joriy qilish: tendensiya va muammolar, yechimlar // “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” Ilmiy-uslubiy jurnal, № 1, 2024.

²²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 11- sentyabrdagi PF-158-son farmoni

²²³ “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023 yil 4 sentyabrdagi PQ-292-son qarori.

darajasini tizimli tadqiq etish va baholash asosida Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliya modelini joriy qilish, bunday model asosida mamlaktimizdagi turli loyihalarni islomiy moliyalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta‘minlash muammosi yechimiga erishishning dolzarbligini belgilamoqda. Zero bu muammoning samarali yechimiga erishish natijasida mamlakatga har yili \$10 milliardgacha investitsiyalar jalb qilishga va ular diversifikatsiyasiga olib kelishi haqidagi Islom taraqqiyoti banking vakili X.Xasanov fikri (www.spot.uz/ru/2019/04/15/idb/) ro‘yobga chiqishi mumkin.

Ushbu muammo doirasida xorijlik va o‘zbek olimlarning ko‘p sonli ilmiy ishlari bo‘yicha amalga oshirilgan bibliografik tahlil natijalari Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida, shu jumladan bundagi turli loyihalarni moliyalashtirishda islomiy moliyani samarali joriy qilish masalasida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilishi asosida ushbu muammoning nazariy-metodologik va amaliy yechimiga erishish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Yuqorida aytilanlar asosida mazkur muammoning yechimiga erishish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqot asosida quyidagilar ishlab chiqilib ilkbor taklif etilmoqda.

1. Noislomiy davlatlarda dualistik model asosida ularning an‘anaviy moliya tizimiga yondosh (muqobil) bo‘lgan xulq-atvoriy tizim sifatida joriy qilingan islomiy moliyalashtirish modeli imkoniyatlaridan turli xil loyihalar amalga oshirilishida foydalanishning samaradorlik darajalarini (tegishli ko‘rsatkichlar yordamida) tizimli tadqiq etish va baholash usuli ilmiy asoslanib ishlab chiqilgan.

Ushbu ilmiy natija bo‘lmish yangi usulning uslubiy ahamiyati – noislomiy davlatlarda loyihalarni Islomning beshta turdagi (yo‘nalishdagi) mazhablari qoidalariga tayanuvchi islomiy moliyalashtirish modeli imkoniyatlaridan foydalanishning samaradorlik darajasini tizimli tadqiq etish, baholash va oshirish masalasi yechimiga erishilganligi bilan belgilanadi. Bunda mazkur modelning tuzilmasi islomiy banking, sug‘urta, kapital bozori, fondlar va moliyaviy fintex segmentlariga ajratib tizimli tadqiq etiladi va kompleks baholanadi. Zero mazkur masala yechimi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliyalashtirish modelini asosli shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqilgan usulning asosiy elementlari bo‘lib noislomiy davlatlarda turli loyihalarni islomiy moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanishning samaradorlik darajasini tizimli tadqiq etish prinsiplari va kompleks baholashning integral va xususiy (segmentar) mezonlari hamda uni amaliyotda qo‘llashning metodik qo‘llanmasi tashkil etadi.

Taklif qilingan usul tarkibiga loyihalarni islomiy moliyalashtirish modeli imkoniyatlaridan foydalanishning samaradorlik darajasini usbu model segmentlari holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning real miqdorlarini ular uchun etalon deb qabul qilingan ko‘rsatkichlar miqdorlaridan ayirmasi shaklida baholashga asoslangan integral va xususiy mezonlar kiradi. Bunda mezonlardagi

etalon ko‘rsatkichlarning miqdorlari bo‘lib ilg‘or islomiy davrlar moliya-bank tizimi (islomiy banking, sug‘urta, kapital bozori, fondlar va moliyaviy fintex segmentlari) holatini ifodalovchi tegishli ko‘rsatkichlarning miqdorlari xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyati – ishlab chiqilgan usulni amaliyotda qo‘llash Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliyalashtirish modelini asosli shakllantirish bilan bog‘liq analitik hisobot, tahliliy xulosalar va taklif tayyorlash imkonini beradi.

2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘lgan islomiy moliyalashtirish modelini shakllantirish va uning moliyalashtirish imkoniyatlaridan investitsiya loyihalarini samarali foydalanish munosabatlarini tartibga solishning huquqiy modeli asoslab berilgan.

Ushbu yangi ilmiy natijaning uslubiy ahamiyati – noislomiy davlatlarda keng qo‘llanilgan dualistik model asosida Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida uning an‘anaviy moliya-kredit tizimiga yondosh (muqobil) bo‘lgan xulq-atvoriy tizim sifatida joriy qilinishiga qarqtilgan islomiy moliyalashtirish modeli imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish muammosi yechimiga erishilganligi bilan belgilanadi.

Amaliy ahamiyati – noislomiy davlatlarda keng qo‘llanilgan dualistik model asosida Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida uning an‘anaviy moliya-kredit tizimiga yondosh (muqobil) bo‘lgan xulq-atvoriy tizim sifatida joriy qilinishi mumkin bo‘lgan islomiy moliyalashtirish modeli imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi alohida qonun va unga mos me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

3. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliyalashtirish modeliga hos va mos qulay biznes muhiti va jamg‘armalarni (S) samarali investitsiyalarga (I) aylanishi (S-I)-muhitini hamda bunda investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi ichki va xorijiy institutlarga teng imkoniyatlar yaratish konsepsiyasi asoslab berilgan.

Ushbu yangi ilmiy natijaning uslubiy ahamiyati – Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliyalashtirish modeliga hos va mos qulay biznes muhiti va jamg‘armalarni (S) samarali investitsiyalarga (I) aylanishi (S-I)-muhitini hamda bunda investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi ichki va xorijiy institutlarga teng imkoniyatlar yaratishning nazariy-metodik konsepsiyasi bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyati – Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliyalashtirish modeliga hos va mos qulay biznes muhiti va jamg‘armalarni (S) samarali investitsiyalarga (I) aylanishi (S-I)-muhitini hamda bunda investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi ichki va xorijiy institutlarga teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

4. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliyalashtirish modeliga hos va mos raqamli islomiy kapital bozorining modeli asoslab berilgan.

Ushbu yangi ilmiy natijaning uslubiy ahamiyati – Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliyalashtirish modeliga hos va mos raqamli islomiy kapital bozori modelining konsepsiyasi bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyati – Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoiti uchun maqbul bo‘luvchi islomiy moliyalashtirish modeliga xos va mos raqamli islomiy kapital bozori modelining faoliyat mexanizmini yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida, shu jumladan bundagi turli loyihalarni moliyalashtirishda islomiy moliyani (shu jumladan islomiy moliyaviy bozor va uning kapital bozorini) samarali joriy qilish strategiyasi va tegishli qonun hujjatlari loyihalarida, O‘zbekistonda noislomiy davlatlardagidek dualistik model qo‘llanilishi asosida islomiy moliyani yondosh (muqobil) tizim sifatida shakllantirish bilan bog‘liq davlat siyosatini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Bunda dualistik modelda biznes va moliyaviy institutlar faoliyati uchun munosib huquqiy mexanizm va raqobat muhiti hamda qulay biznes va investitsiya muhitlari yaratiladi, ushbu model doirasida iqtisodiyot sub‘ektlari, ayniqsa, aholi va biznes uchun ikki tizim o‘rtasida tanlov imkoniyati paydo bo‘ladi, ularning islomiy qoidalar talabi bo‘yicha ehtiyoji qondiriladi, yangi moliyaviy mahsulotlar va texnologiyalar ishlab chiqiladi, Yangi O‘zbekistonning islomiy va noislomiy davlatlar hamjamiyati oldidagi nufuzi ortadi, natijada milliy iqtisodiyot taraqqiyotida ichki va chet ellik investorlar uchun teng imkoniyatlar vujudga kelib, ularning ishtiroki faollashadi, inflyatsiya, korrupsiya va yashirin iqtisodiyot jilovlanadi.

TIJORAT BANKLARIDA ISLOM DARCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARIGA OID ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI

Sirojiddinov Shukrullo Hakimjon o‘g‘li

O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi

“Islom iqtisodiyoti va moliyasi” yo‘nalishi magistranti

So‘nggi yillarda jahon miqyosidagi inqirozlarni keltirib chiqarayotgan an’anaviy moliya tizimi tobora yangi tamoyillar va vositalarni joriy etish asosida milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish zarurligini talab qilmoqda. Shu munosabat bilan, islom moliya institutlari bugungi kunda samarali muqobil tizim o‘laroq, nafaqat o‘zlarining ishonchliligini isbotladilar, balki inqiroz vaziyatlarida eng kam zarar ko‘rgan moliya institutlari qatoridan joy olishdi. Islom iqtisodiy modelining maqsadi zamonaviy sharoitda moliya sohasidagi muammolarni hal